



RAQOBAT HUQUQI VA MONOPOLIYAGA QARSHI TARTIBGA SOLISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

**Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti 4-kurs talabasi
Rustamov Sardor Otobay o‘g‘li**

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqobat huquqi va monopoliyaga qarshi tartibga solish sohasidagi dolzarb muammolar ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Dunyo tajribasida raqobatni himoya qilish qonunchiligi asosan monopol korxonalar hukmronligini cheklash, korporativ egalikni cheklash hamda narxlarni kelishib olinishini taqiqlash kabi yo‘nalishlarda shakllangan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni misolida raqobatga qarshi harakatlarni oldini olishga qaratilgan yangi normalar – xususan, raqamli platformalar faoliyatini tartibga solish, monopoliyaga qarshi komplayens joriy etish, ustun mavqe va muzokara kuchini aniqlash mezonlarini yangilash, kartellarga qarshi imtiyozli xabar berish tizimi va moliyaviy jarimalarni joriy etish kabi o‘zgarishlar – tahlil qilinadi. Xorijiy davlatlardagi zamonaviy tendensiyalar, jumladan, raqamli iqtisodiyotdagi platformalarning bozordagi ustunligiga qarshi yangi yondashuvlar, sun‘iy intellekt va algoritmik narx belgilash bilan bog‘liq muammolar, mehnat bozorlarida raqobat cheklanishi bilan yuzaga kelayotgan xavflar ham ko‘rib chiqiladi. Iqtisodchi olimlarning fikrlari va xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga tayangan holda, raqobat siyosatini takomillashtirish bo‘yicha xulosalar va amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: raqobat huquqi, monopoliyaga qarshi tartibga solish, raqamli iqtisodiyot, kartel, raqobat siyosati, iste’molchilar huquqlari, antitrust.

Kirish

Raqobat huquqi bozor iqtisodiyotida halol raqobat muhitini ta‘minlash va raqobatni cheklovchi hamda iste‘molchilarning manfaatlarini kamsituvchi xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan huquqiy normalar tizimidir. Monopoliyaga qarshi siyosat har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi: rivojlangan mamlakatlarda bu siyosat raqobat muhitini takomillashtirishga, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda esa mazkur muhitni shakllantirishga qaratiladi. Monopoliyalarga qarshi kurash tarixi xalqaro miqyosda XIX asrga borib taqaladi – masalan, AQShda birinchi antitrust qonun (Sherman qonuni) 1890-yilda qabul qilingan



bo‘lib, bugungi kunda deyarli barcha rivojlangan davlatlarda sog‘lom raqobat muhitini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik va maxsus idoralar faoliyat yuritadi.

Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekistonda ham bozor islohotlari jarayonida monopoliyaga qarshi qonunchilik shakllantirildi. 1992-yil 3-avgustda qabul qilingan ilk Qonun – “Monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risida”gi qonun – bozorda ataylab taqchillik yaratish, narxlarni monopollashtirish (kelishib oshirish), raqobatchilarning bozorga kirishiga to‘sqinlik qilish va raqobatning g‘irrom usullarini qo‘llashni man etgan edi. Shu tariqa, O‘zbekistonda raqobat muhitini shakllantirish uchun zarur huquqiy asos yaratilib, uning doirasida qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Monopoliyaga qarshi davlat organi sifatida dastlab 1992-yilda Moliya vazirligi tarkibida Monopoliyaga qarshi kurash va narx siyosati bosh boshqarmasi tashkil etildi, 2000-yilda esa ushbu organ mustaqil davlat qo‘mitasi maqomiga chiqarildi. Mamlakatda raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar – masalan, davlat mulkini xususiylashtirish, narxlarni erkinlashtirish – ham muhim o‘rin tutdi. Narxlarni erkin qo‘yib yuborish raqobatli muhitni yaratishning asosiy talabi deb belgilangan va aynan shu maqsadda mazkur 1992-yilgi qonun qabul qilingan edi. Ushbu qonun asosida raqobatni rivojlantirishga qaratilgan bir turkum me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqildi.

O‘zbekistonda uzoq yillar davomida korxonaning bozordagi ulushi 35%dan ortiq bo‘lsa (oziq-ovqat tovarlari bo‘yicha 20%), u monopolist korxona sifatida davlat reyestriga kiritilishi amalda qo‘llanib keldi. Monopoliyaga qarshi tartibga solishda bunday korxonalar faoliyatini nazorat qilish uchun turli usullar – jumladan, ularning mahsulotlariga davlat tomonidan maksimal narx yoki rentabellik darajasini belgilash, shuningdek, monopol birlashmalarni majburiy ravishda bo‘lib tashlash kabi choralar qo‘llangan. Bozorda sog‘lom raqobatni ta‘minlash maqsadida 90-yillar va 2000-yillar davomida iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun (1996) va tabiiy monopoliyalar to‘g‘risidagi qonun (1997, 1999-yangi tahrir) kabi hujjatlar ham qabul qilingan bo‘lib, ular orqali sifatsiz tovarlarning bozorga chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik va tabiiy monopoliya sohalarini tartibga solish mexanizmlari joriy etildi.

XXI asrga kelib, raqobat muhitiga ta‘sir etuvchi yangi omillar paydo bo‘ldi. Raqamli texnologiyalar rivoji natijasida global platformalar va IT gigantlar vujudga keldi, transchegaraviy bozorlarda ularning bozor qudrati ortdi. Bozorlarning integratsiyalashuvi va raqamli transformatsiya sharoitida an‘anaviy raqobat normalarini takomillashtirish zarurati tug‘ildi. So‘nggi yillarda iqtisodiyotning raqamli sektori, global texnologiya kompaniyalarining ustun mavqei hamda sun‘iy intellektdan foydalanish kabilar raqobat huquqi oldiga yangi savollar qo‘ymoqda. Shu munosabat



bilan, O‘zbekistonda 2023-yilda raqobat qonunchiligiga keng ko‘lamli o‘zgartirishlar kiritilib, ilgari mavjud bo‘lmagan bir qator qoidalar joriy etildi. Quyida ushbu yangiliklar va umuman sohadagi dolzarb muammolar batafsil tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar tahlili, shuningdek qiyosiy yondashuv usullari qo‘llanildi. O‘zbekistonning yangi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni normalari va ularning asoslari o‘rganilib, rasmiy ma‘lumotlar tahlil qilindi (masalan, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam va imtiyozlarning raqobat muhitiga ta‘siri bo‘yicha statistik tahlillar). Xorijiy mamlakatlardagi raqobat siyosati tendensiyalarini o‘rganish maqsadida 2024–2025-yillardagi AQSh, Yevropa Ittifoqi va boshqa mintaqalardagi yirik sud ishlari hamda tartibga soluvchi organlar faoliyatiga doir hisobotlar tahlil qilindi. Jumladan, raqamli bozorlar, sun‘iy intellektning raqobatga ta‘siri, xalqaro kartellarning fosh etilishi kabi masalalar bo‘yicha OECD va UNCTAD kabi tashkilotlarning hisobotlari, yetakchi olimlarning ilmiy maqolalari ko‘rib chiqildi. Tadqiqot davomida barcha fikr va xulosalar aniq manbalarga tayangan holda keltirildi. Raqobat huquqidagi eng dolzarb muammolardan biri raqamli platformalar (onlayn bozorlar, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va h.k.) ustidan nazorat masalasidir. Ilgari O‘zbekiston qonunchiligida raqamli platformalar faoliyati alohida tartibga solinmagan bo‘lib, yirik onlayn platformalarning bozordagi ustun mavqeini suiiste‘mol qilishi xavfi paydo bo‘lgan edi. 2023-yilda qabul qilingan yangi Qonunda ilk bor “raqamli platforma” tushunchasi joriy etilib, bunday subyektlarning raqobatni cheklovchi va iste‘molchilar manfaatlarini kamsituvchi harakatlariga bevosita taqiqlar belgilandi. Jahon tajribasida ham raqamli bozorlarda raqobatni saqlash uchun yangi yondashuvlar qo‘llanilmoqda – masalan, Yevropa Ittifoqi yaqinda Raqamli Bozorlar Aktini (Digital Markets Act) kuchga kiritib, eng yirik texnologik kompaniyalarni maxsus ex ante tartibga solish orqali ularning bozordagi hukmronligiga chek qo‘yishga intilmoqda. OECD ma‘lumotlariga ko‘ra, raqamli bozorlardagi tezkor innovatsiyalar va noaniq bozor chegaralari raqobat organlari uchun murakkab vaziyatlar yaratmoqda – ular yangi turdagi suiiste‘molliklar (masalan, algoritmik narx kelishuvlari) bilan shug‘ullanishi, shuningdek bozorlar o‘zgaruvchanligiga mos ravishda tahlil usullarini modernizatsiya qilishi talab etiladi. Bu esa ayrim hollarda amaldagi qonunchilikni yangilash va raqobat siyosatida yangi vositalarni joriy etishni zarur qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida davlatning ulushi va roli an‘anaviy ravishda kattaligi sababli, davlat korxonalari faoliyati va davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar raqobatga sezilarli ta‘sir ko‘rsatib kelgan. Masalan, rasmiy tahlillarga ko‘ra 2021-yilda 58 mingdan ziyod xo‘jalik yurituvchi subyektga jami 44,8 trln so‘mlik, 2022-yilda esa 111,1 ming subyektga 72,96 trln so‘mlik soliq, bojxona va boshqa imtiyozlar berilgan.



Learning and Sustainable Innovation

Amaldagi qonunchilikda avval bunday davlat yordamini tartibga soluvchi aniq qoidalar mavjud emas edi. Yangi Qonunda esa davlat ko'magini taqdim etishning shakllari va u bilan bog'liq cheklovlar belgilandi, jumladan, har qanday normativ-huquqiy hujjat loyihasini qabul qilishdan avval uning raqobat muhitiga ta'siri monopoliyaga qarshi organ tomonidan majburiy tartibda ekspertizadan o'tkazilishi talabi kiritildi. Shuningdek, davlatning tadbirkorlik faoliyatida bevosita ishtirok etishiga doir qat'iy mezonlar belgilandi – endilikda yangi davlat korxonasini tashkil etish yoki davlatning xo'jalik subyektlar ustav fondida ishtirok etishi faqat monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi bilan amalga oshiriladi, ayrim sohalarda esa davlatning bozorga kirishi butunlay taqiqlanadi. Ushbu chora-tadbirlar davlatning iqtisodiyotga ortiqcha aralashuvi oqibatida yuzaga keluvchi yashirin monopolistik holatlarning oldini olishga qaratilgan bo'lib, xususiyy biznes uchun teng raqobat sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi.

Raqobatni tartibga solishning muhim jihatlaridan biri bu bozorda ustun mavqeni aniqlash va birlashmalar (konsolidatsiyalar)ni nazorat qilish mezonlaridir. Ilgari O'zbekiston qonunchiligida monopolistik mavqe mezoni sifatida bozor ulushining 35 foizdan ortig'i (iste'mol tovarlari uchun 20%) qabul qilingan edi. Yangi Qonun bilan bu mezon qayta ko'rib chiqildi: endilikda bozorda raqobatchisi yo'q hamda ulushi 40% va undan ortiq bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt ustun mavqega ega deb e'tirof etiladi. Bu o'zgartirish bozor konsentratsiyasi ortgan, lekin raqobatchilari mavjud bo'lmagan holatlarda monopol holatni aniqlash uchun aniqroq mezon beradi. Shu bilan birga, yangi qonunda "ustun muzokara kuchi" degan tamoyil ham kiritildi – ya'ni bozorda ulushi katta bo'lmasa-da, ayrim xaridor yoki yetkazib beruvchilar oldida bir tomonlama shartlarni diktovka qila oluvchi subyektlar ham raqobatga xavf tug'dirishi mumkin deb topildi. Mazkur norma amaliyotda, masalan, yirik chakana savdo tarmoqlarining kichik yetkazib beruvchilarga nisbatan noqulay shartlar qo'yishi kabi holatlarning oldini olishga qaratilgan. Birlashma va qo'shib olishlar (mergerlar)ni nazorat qilish borasida ham kichik biznes manfaatlarini hisobga olgan holda yengillik berildi – iqtisodiy konsentratsiyaga rozilik olish talab qilinadigan bitimlar uchun korxonalar aktivlari va aylanmasi bo'yicha chegaraviy miqdorlar taxminan 5 baravarga oshirildi. Natijada, endilikda kichik va o'rta korxonalar ishtirokidagi qo'shilish-bitimlari uchun ortiqcha ma'muriy to'siqlar kamayadi (masalan, Qonunga muvofiq bitim taraflarining jami aktivlari qiymati 33 mlrd so'mdan 165 mlrd so'mga oshirilgan).

Bozor iqtisodiyotida eng zararli raqobatga qarshi harakatlardan biri – kartel kelishuvlari (o'zaro narxlarni kelishib olish, bozorlarni bo'lib olish va h.k.)dir. Taniqli



iqtisodchi Adam Smit ta'kidlaganidek, "bir xil sohadagi tadbirkorlar kamdan-kam hollarda bir joyga jamuljam bo'ladilar, lekin ularning uchrashuvi baribir qandaydir jamoatchilikka qarshi til biriktirishga, masalan narxni oshirish rejasiga aylanadi". Bunday yashirin kelishuvlar natijasida narxlar sun'iy ravishda oshib, raqobat kamayadi va bozor samaradorligi pasayadi. Yangi qonunda kartellarga qarshi kurashish uchun samarali mexanizmlardan biri joriy etildi – leniency dasturi, ya'ni raqobatga qarshi kelishuvda qatnashgan tomonlarning birinchisi o'z ixtiyori bilan xabar bersa, javobgarlikdan ozod qilish tizimi. Endilikda, agar korxona yoki shaxs sodir etilgan kartel kelishuvi haqida monopoliyaga qarshi organga birinchi bo'lib ixtiyoriy ma'lumot bersa, u ma'muriy va moliyaviy jazolardan ozod etiladi. Ko'pgina xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bunday dastur kartellarni fosh etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yangi qonun bilan raqobatga qarshi huquqbuzarliklar uchun jazo choralari keskin kuchaytirildi – xususan, kartel kelishuvi tuzganlik uchun endi huquqbuzar korxonaga uning yillik tovar aylanmasining 5 foizigacha miqdorda moliyaviy jarima qo'llanishi mumkin. Ta'kidlash joizki, bungacha O'zbekistonda raqobatga oid huquqbuzarliklar uchun asosan Ma'muriy javobgarlik kodeksi doirasida nisbatan kichik jarimalar qo'llanilgan edi; endi esa to'g'ridan-to'g'ri qonunda yirik iqtisodiy jarimalar belgilanishi raqobatga qarshi kartel va til biriktiruvlarga nisbatan jiddiy ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Monopoliyaga qarshi siyosatni samarali amalga oshirishda vakolatli organ – Raqobat qo'mitasi (ilgari Monopoliyaga qarshi qo'mita)ning mustaqilligi va kuchli vakolatlarga ega bo'lishi muhim. Yangi qonunga muvofiq, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi endi bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va Oliy Majlis Senatiga hisobdor etib belgilandi, ya'ni u o'z faoliyatida hukumatning boshqa ijro organlaridan mustaqil bo'lishi qonunan kafolatlandi. Amaldagi amaliyotda bu juda dolzarb edi, chunki ilgari monopoliyaga qarshi organlarning ba'zi hollarda mahalliy hokimiyatlar yoki manfaatdor guruhlar bosimidan holi bo'lmasligi mumkin edi. Qo'mitaga qo'shimcha vakolatlar ham berildi: masalan, agar asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlarida keskin tebranish va o'sish kuzatilsa, qo'mita bozor holatini o'rganib tezkor choralar ko'rishi mumkin (bozor narxlarini vaqtincha tartibga solish takliflari va h.k.). Shuningdek, davlat tomonidan ko'rsatiladigan iqtisodiy yordamlarga (imtiyozlarga) nisbatan nazorat o'rnatish vakolati ham endi monopoliyaga qarshi organga yuklatildi. Bu o'zgarishlar raqobat organining institutsional mustahkamligini oshirib, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olishda tezkorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Yangi qonunda, shuningdek, raqobat siyosati prinsiplari ham aniq belgilab qo'yildi: insofli raqobat,



qonuniylik, shaffoflik, tenglik va iste'molchilar huquqlari ustuvorligi kabi tamoyillar davlat raqobat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida qayd etildi. Bu prinsiplarga sodiq qolish raqobat organi va umuman hukumatdan yuqori mas'uliyatni talab etadi.

Munozara

Raqobat huquqi va monopoliyaga qarshi siyosatning dolzarb muammolarini muhokama qilar ekanmiz, avvalo, raqobatni tartibga solishning nazariy asoslariga e'tibor qaratish lozim. Raqobat siyosatining asosiy vazifasi iste'molchilar farovonligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanishga erishish va innovatsiyalarni rag'batlantirishdan iborat. Biroq zamonaviy sharoitda raqobatga ta'sir ko'rsatuvchi omillar kengayib bormoqda – endilikda raqobat huquqi faqat narxlar masalasigina emas, balki bozorlardagi innovatsion jarayonlar, data (ma'lumot) dan foydalanish va hatto mehnat bozori kabi sohalarni ham qamrab olmoqda. Masalan, so'nggi yillarda AQShda birlashmalarning mehnat bozoriga (ya'ni ishchi kuchi raqobatiga) ta'sirini ham hisobga olish tendensiyasi paydo bo'ldi – ayrim yirik kompaniyalarning qo'shib ketishi ishchilarning maosh va bandligiga zarar yetkazishi mumkin degan xavotirlar kuchaydi. Shuningdek, raqobatga qarshi harakatlarning zararini baholashda endi faqat iste'molchiga to'g'ridan-to'g'ri narx oshishi bilan bog'liq ziyon emas, balki innovatsiyalarning susayishi yoki bozor xilma-xilligining kamayishi kabi bilvosita oqibatlar ham e'tiborga olinyapti. Demak, raqobat huquqini qo'llashda yondashuv tobora komplekslashib, iqtisodiy jarayonlarning chuqur tahlilini talab etmoqda.

Raqobat siyosatining amaliyotida turli maktablar va qarashlar mavjudligi sababli, dunyoning ayrim mamlakatlarida antimonopoliya siyosatida turlicha tamoyillar kuzatilmoqda. Masalan, AQShda so'nggi yillarda raqobat siyosati keskin siyosiy o'zgarishlarga hamohang ravishda tebrandi – 2021–2024-yillar davomida Bayden ma'muriyati antitrust siyosatini juda qat'iylashtirdi, hattoki ayrim ekspertlar fikricha so'nggi 40 yillik "iste'molchilar farovonligi" tamoyilidan voz kechilib, yirik kompaniyalarga nisbatan apriori salbiy munosabat shakllandi. Federal savdo komissiyasi va Adliya vazirligi bu davrda nafaqat gorizontaal (o'zaro raqiblar o'rtasidagi) birlashmalarni, balki vertikal yoki yangi paydo bo'layotgan raqobatchilarni sotib olish kabi holatlarni ham qat'iy tekshiruvdan o'tkazdi. 2024-yil yakunlariga kelib esa AQShda siyosiy hokimiyat almashinuvi ortidan raqobat siyosatida "an'anaviy" yondashuvga qaytish kutilmoqda – jumladan, Tramp ma'muriyati davrida antitrust siyosati yana bozor tamoyillariga yaqinlashib, asossiz intervensiyalardan voz kechishi va kelishuvlar bo'yicha huquqbuzarliklarga nisbatan ko'proq ishonchli iqtisodiy dalillarga tayanuvchi yondashuv qo'llashi taxmin qilinmoqda. Yevropa Ittifoqida esa aksincha, so'nggi yillarda raqobat siyosati yirik



texno-gigantlarga nisbatan yanada qat'iylashmoqda. Yevropa Komissiyasi Google, Apple, Meta kabi platformalarga alohida tartib qoidalarini (shu jumladan yuqorida zikr etilgan Raqamli Bozorlar Aktini) tatbiq etib, ulardan bozorda raqobatni cheklamaslikni talab qilmoqda. Shuningdek, Yevropada sun'iy intellekt va algoritmlardan foydalanish orqali bozorni egallash kabi xatti-harakatlarga qarshi ham yangi ishlar qo'zg'atilmoqda – masalan, Illumina/Grail ishida Yevropa sudi kichik texnologik startaplarni sotib olish orqali potensial raqobatchini yo'q qilishga urinish ham raqobat qoidalariga zid ekani haqida muhim qaror chiqardi. Ko'rinib turibdiki, jahonda antimonopoliya siyosatining “progressiv” va “an'anaviy” modellariga oid bahs-munozaralar davom etmoqda, har bir yondashuvning o'z ustun va kamchiligi amaliyotda sinovdan o'tmoqda.

Monopoliyalarning makroiqtisodiy hamda ijtimoiy oqibatlari ham alohida e'tiborga molik. Ayrim tadqiqotlar monopoliyalarning o'sishi jamiyatdagi daromadlar tengsizligiga hissa qo'shishini ko'rsatmoqda. Masalan, Nobel mukofoti sovrindori iqtisodchi Jozef Stiglitz AQSh misolida shuni ta'kidlaydiki, so'nggi o'n yilliklarda ko'plab tarmoqlarda bir necha yirik korporatsiyalar bozorda hukmronlik qilmoqda va ular raqobatning sustligi tufayli narxlarni oshirib, o'z navbatida ishchilarning maoshlarini pasaytirishga olib kelmoqda – natijada bu jarayon jamiyatda farovonlikning adolatsiz taqsimlanishi va iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, yirik monopoliyalar nafaqat iste'molchilarga yuqori narxlar orqali ziyon yetkazishi, balki bozorni yopiq holda ushlab turib, yangi raqobatchilarning kirib kelishini qiyinlashtirishi va innovatsiyalarni susaytirishi mumkin. Stiglitz o'z asarlarida raqobatning kamayishi AQSh iqtisodiyotida mehnat unumdorligining pasayishi va umumiy iqtisodiy samaradorlikning tushib ketishiga ham hissa qo'shganini tahlil qilib bergan. Bunday holatlar raqobat huquqining ahamiyatini yanada oshiradi, chunki bozor o'z-o'zidan bunday muammolarni hal eta olmasa, davlatning tartibga soluvchi aralashuvi talab etiladi. Misol uchun, raqamli platformalar misolida ko'rmoqdamizki, ularda tarmoq effektlari va ma'lumot asimmetriyasi tufayli “g'olib hammasini oladi” holati yuzaga kelishi oson – yirik platforma foydalanuvchilar va ma'lumotlarni o'ziga jamlab, raqobatchilarni siqib chiqaradi. Bunga qarshi kurashish uchun an'anaviy raqobat qonunchiligini yangi qoidalar (masalan, platformalarning o'z ekotizimidagi cheklovlarini olib tashlash, ma'lumotlarga ulash talablari) bilan boyitish zarurati paydo bo'lmoqda.

Shu o'rinda, ayrim iqtisodchilar yirik korxonalar innovatsiya uchun qulay sharoit yaratadi deb hisoblagan klassik nazariy fikrlarni ham esga olish lozim. Jumladan, J. Shumpeter XX asr o'rtalarida “yaratuvchan buzilish” konsepsiyasini ilgari surib, katta kompaniyalar va monopolistik rentaga ega firmalar foyda evaziga ilmiy tadqiqot va



innovatsiyalarga ko‘proq sarmoya kiritishini aytgan. Haqiqatan ham, ba’zi tarmoqlarda (masalan, farmatsevtika, yuqori texnologiyalar) yirik kompaniyalar katta mablag‘ evaziga yangi mahsulot va texnologiyalar yaratadi. Shu bois, raqobat organlari uchun vazifa – raqobatni rag‘batlantirish va innovatsiyani qo‘llab-quvvatlash o‘rtasida muvozanatni topishdir. Hozirgi kunda qaror qabul qiluvchi organlar har bir ishda bozordagi konsentratsiya qay darajada zarar keltirishi yoki aksincha samaradorlik berishini alohida baholab, eng maqbul yechimni topishga intilmoqda. Masalan, ayrim birlashmalarga raqobatga zid bo‘lsa-da, bandlikni saqlash yoki milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan ruxsat beriladigan hollatlar ham uchraydi – bunday istisnalar qonunchilikda maxsus ko‘zda tutilgan.

Raqobat siyosatining yana bir muhim jihati – iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bilan uzviy bog‘liqligi. Monopoliyaga qarshi kurash pirovardida iste’molchilarning tanlov erkinligi va adolatli narxlarda tovarlar/xizmatlar olishini ta’minlashga qaratilgandir. O‘zbekistonda 1996-yilda qabul qilingan “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun orqali bozorda sifatsiz, talablarga javob bermaydigan tovarlarning tarqalishiga qarshi muayyan mexanizmlar joriy etildi. Yangi Raqobat to‘g‘risidagi qonunda ham iste’molchilar huquqlarini ta’minlash ustuvor tamoyillardan biri sifatida belgilandi – masalan, uning 1-moddasida raqobat cheklanishiga olib keluvchi yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday xatti-harakatlar ustidan nazorat o‘rnatish va ularga chek qo‘yish vazifasi qo‘yilgan, bunda raqobat cheklangan sharoitda iste’molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik asosiy maqsad sifatida qayd etiladi. Demak, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish bevosita iste’molchining manfaatlarini himoya qilish vositasi hamdir. Raqobat bor joyda iste’molchi tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa ishlab chiqaruvchilarni sifatni oshirishga va narxlarni maqbul darajada ushlashga majbur qiladi.

Milliy raqobat qonunchiligini xalqaro andozalarga muvofiqlashtirish bugungi globallashtirilgan iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. BMTning Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan ishlab chiqilgan Model Raqobat Qonuni ko‘plab rivojlanayotgan davlatlar uchun o‘z milliy qonunlarini tayyorlashda asos bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, OECD doirasida qabul qilingan tavsiyalar va ilg‘or amaliyotlar ham tajriba almashish imkonini bermoqda. O‘zbekiston ham raqobatga oid qonunchiligini bosqichma-bosqich takomillashtirib, rivojlangan davlatlar andozalariga yaqinlashtirib barmoqda. Masalan, yangi Qonunda joriy etilgan ko‘plab normalar – kartelga qarshi “leniency” tizimi, komplayens (monopoliyaga qarshi muvofiqlik) majburiyatlari, davlat yordamini nazorat qilish tartibi, raqamli



platformalar uchun maxsus qoidalar – ilgari AQSh, YeI singari yurisdiksiyalar tajribasida muvaffaqiyatli qo'llangan choralar edi. Bu esa mamlakatimiz raqobat siyosati jahon miqyosidagi tendensiyalardan ortda qolmasdan rivojlanayotganini ko'rsatadi. Raqobat masalalari ko'pincha transchegaraviy xarakterga ega ekani sababli, davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish zarurati ham tug'ilmoqda. Ayniqsa, global internet kompaniyalari bir vaqtning o'zida bir nechta mamlakatlarda faoliyat yuritishi va ularning monopol holatini yakka mamlakat darajasida to'liq jilovlash qiyinligi hisobga olinsa, kelgusida xalqaro darajada uyg'unlashgan yondashuvlar muhim bo'ladi. OECD mutaxassislari raqamli bozorlarni tartibga solishda turli davlatlarning bir-birini to'ldiruvchi choralarni qo'llashi va ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yishi raqobat siyosatini samarali qilishini ta'kidlashmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, raqobat huquqi va monopoliyaga qarshi tartibga solish milliy va global iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lib, uning dolzarb muammolariga doimiy e'tibor qaratish lozim. Raqobat huquqining asosiy maqsadi – bozorlar samaradorligini oshirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish – hozirgi davrda yangi qirralar kasb etmoqda. Raqamli inqilob, transmilliy korporatsiyalarning kuchayishi, yangi texnologiyalar (masalan, sun'iy intellekt)ning paydo bo'lishi raqobat muhitiga yangi xavf va imkoniyatlar olib keldi. Shu sababli, dunyo bo'ylab raqobat qonunchiligi o'zgarayotgan sharoitga moslashmoqda va O'zbekiston ham bu jarayondan chetda qolmayapti.

O'zbekistonning 2023-yilda qabul qilingan yangi Raqobat to'g'risidagi qonuni mamlakatimiz raqobat siyosatida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu qonun orqali ilgari yechimi qiyin bo'lib kelgan qator muammolarga huquqiy yechim topildi: davlatning iqtisodiyotdagi roli qayta belgilandi, raqamli bozorlar nazorat ostiga olindi, bozordagi ustun mavqe tushunchasi aniqroq mezonlar bilan mustahkamlandi, kartellarga qarshi kurash kuchaytirildi va raqobat organining mustaqilligi ta'minlandi. Albatta, qabul qilingan normalarni hayotga tatbiq etish oldinda turgan eng katta vazifadir. Raqobat muhitini yaxshilash uchun qonunlarga amal qilinishi ustidan samarali nazorat, sud tizimining adolatli qarorlari va eng muhimi – tadbirkorlik subyektlarining ongida halol raqobat madaniyatini shakllantirish zarur bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, raqobat huquqi va monopoliyaga qarshi tartibga solishning dolzarb muammolarini hal etish doimiy e'tibor va moslashuvchan yondashuvni talab qiladi. Raqobat siyosatini takomillashtirish orqali innovatsion iqtisodiyot uchun zamin yaratiladi, iste'molchilar manfaatlari himoyalanaadi hamda uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o'sishga erishiladi. Kelgusida ushbu sohada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy qonunchilikni shunga mos



ravishda rivojlantirish orqali O‘zbekistonning raqobat siyosati samaradorligini yanada oshirish imkoni mavjud. Raqobat – taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi, shu bois undan keladigan foydani jamiyat farovonligi yo‘lida maksimal darajada ro‘yobga chiqarish bugungi kunning ustuvor vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni (03.07.2023 y., O‘RQ–850-son). Lex.uz rasmiy hujjati.
2. Shodmonqulov Sh. “Raqobat to‘g‘risidagi qonun: taklif va yechimlar”. O‘zbekiston Respublikasi Raqobat qo‘mitasi veb-sayti, 2023-yil 14-avgust.
3. “Monopoliyaga qarshi qonunchilik” maqolasi. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi*, Vikipediya (uzwiki) sayti, 2025-yil yangilanishi.
4. Morgan Lewis, “2024 Antitrust & Competition Year in Review and Trends for 2025”. 2025-yil yanvar oyidagi hisobot (AQSh).
5. Cleary Gottlieb, “2024 Antitrust Update: Navigating the Evolving Landscape”. 2025-yil 16-yanvar chop etilgan tahliliy maqola.
6. Adam Smit. *The Wealth of Nations* (1776). Iqtibos Andrew R. Dickning “Cartels” maqolasidan olindi (Econlib iqtisodiy ensiklopediyasi).
7. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti). “Competition and Digital Economy” (Raqobat siyosatining raqamli iqtisodiyotdagi ahamiyati) mavzusidagi hisobotdan parchalar, 2023-yil.
8. Stiglitz, J. “America Has a Monopoly Problem – and It’s Huge”. *Columbia University CGT*, 2017-yil 13-mart. Maqolada AQSh iqtisodiyotidagi monopoliyalar va tengsizlik tahlil qilingan.